



## INTERACTION OF LANGUAGE AND CULTURE IN THE ANALYSIS OF LINGUCULTUROLOGICAL ASPECTS OF PHRASEOLOGIES

**Bekiyeva Malika Jamoldin kizi**

Andijan State Medical Institute

Teacher of the department of

Uzbek language and literature

[malikaxonjamoldinovna@mail.com](mailto:malikaxonjamoldinovna@mail.com)

### **Annotation.**

This article discusses the relationship between language and culture in the analysis of linguocultural aspects of phraseology. Phraseologisms are a spiritual treasure that enriches the language and its content, and they are a linguistic and cultural object that unites the culture of the nation.

### **Key words:**

Phraseology, linguoculturology, language, culture, stable connection, nation, linguistics, culturology, communication.

Til o'zi mansub bo'lgan millatning madaniy olamini, xarakter-xususiyatini namoyon etib turuvchi bir omildir. Til va madaniyat orasidagi ayni shu munosabatni tekshirib tadqiq etish ham bugungi kun tilshunosligining muhim masalalaridan sanaladi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. Karimov "Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lishi o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish" davlat ahamiyatiga molik ekanligini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, o'zbek tili sohasida milliy ruh va milliy imkoniyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. So'nggi yillarda o'zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo'nalishlari rivojlandi. Bular ichida ayniqsa "tilga izchil yondashish va funksional tahlil" yo'nalishlari alohida o'rin tutadi. Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks ettiradi. Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma'noda har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan - tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

Lingvokulturologiya - "til va madaniyat"ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar - til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi.

Lingvokulturologiyaning obykti sanalgan barqaror birikmalardan biri frazeologizm, ya'ni iboralaridir. Frazeologizm (frazeologik birlik) - bu semantik jihatdan bog'langan so'z birikmalar va gaplarning umumiy nomlanishi bo'lib, shaklan o'xshash bo'lgan sintaktik strukturalardan farqli ular fikrni tashkil etishda so'zlar tanlanishi va ularning kombinatsiyasining umumiy qonuniyatlariga

muvofig amalga oshirilmaydi, balki nutqda belgilangan semantik struktura va muayyan leksikogrammatik tarkibning o'zaro munosabati bilan aks ettiriladi.

Iboralar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi ma'naviy xazina bo'lib, ular ham lingvokulturologik obyekt sifatida millatning madaniyatini o'zida jamlovchi til birligi hisoblanadi. Quyida bunday iboralardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

"Peshana teri to'kmoq". Ushbu iborada mehnatkash xalqimizning tugal xulosasi, ya'ni inson yaxshi, farovon hayotga ter to'kib, mehnat bilan erishadi, degan fikri o'z aksini topgan. Xalqning asriy tajribalari asosida yaratilgan bunday iboralar o'zbek xalqining xarakter-xususiyati va fe'l-atvorini yaqqol ko'rsatadi. Shunday frazemalar ham borki, ular aynan o'zbek xalqining jonli tilida mavjud bo'lib, xalqimiz mentaliteti va o'ziga xosligini namoyon qilib turadi.

"Kindik qoni to'kilgan". Ayni shu iboraning o'zida ham xalqimizga xos ona vatanga sadoqat, tug'ilib o'sgan joyga muhabbat kabi tushunchalar boy ko'rsatib turibdi.

O'zbek tili leksikasida mavjud frazemalarning deyarli hammasi lingvokulturologik xususiyatga ega. Masalan, "Qo'li ochiq" frazemasini saxiy ma'nosida qo'llanuvchi belgi bildiruvchi frazema bo'lib, aynan tanti va mehmondo'st, hojatbaror xalqimizning vakillariga nisbatan ishlatiladi. Yoxud "Do'ppisini osmonga otmoq" iborasini oladigan bo'lsak, uning aytilishi va eshitalishiyoq ko'z o'ngimizda o'zbek xalqini va uning samimiy, sodda, tanti bir vakilining xushchaqchoq qiyofasini gavdalantiradi. Sh. Rahmatullayevning izohli frazeologik lug'atida "Juda xursand bo'lmoq", "Quvonmoq" deya izohlangan bu iborada o'zbek milliy bosh kiyimi - do'ppi so'zining kelishi frazemada, ya'ni tilning bitta birligida millatga xos bir omil o'zini sezdirib turadi.

"Kuragi yer ko'rmagan" iborasi ham kurashchi polvonlarga nisbatan ishlatiladigan bo'lib, bu ham lingvokulturologik ahamiyatga ega iboralardan hisoblanadi. Shuningdek, "Qo'ygani joy topolmadi" iborasining qo'llanishi ham xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, o'zgani hurmat-izzat qilish samimiylik va tantilik singari insoniy fazilatlarini harakat holatda borttirib ko'rsatib turadi. Bu kabi xalqimiz jonli tilida mavjud bo'lgan ko'plab iboralar, frazemalar o'zbek xalqiga xos bo'lgan madaniy olamni lisonda namoyon etadi.

"Qo'y og'zidan cho'p olmagan" - nihoyat darajada beozor, mo'min "iborasi fe'l-atvor bildiruvchi frazema bo'lib, yuvosh, xushfe'l insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bu frazemaning ham lingvokulturologik ahamiyati mavjud. Bunda ham shaklan, ham mazmunan xalqimiz madaniyati va ma'naviyatiga xos belgilar mavjud. Xalqimiz turmush tarzida azaldan chorvadorlik ishi muhim o'rin tutgan. Iborada aynan yuvosh jonivor qo'y obrazining keltirilganligi ham mana shu omilga bog'liq. Cho'p obrazi ham xalq og'zaki ijodi namunalarida juda ko'p uchraydigan predmet sanaladi.

"Childirmasiga oyoq tashlamoq" degan ibora ham borki, bu ibora "nog'arasiga o'ynamoq" frazemasiga sinonim bo'ladi. Yana uning o'rnida "Yo'rig'iga yo'rg'alamoq" iborasini ham qo'llash mumkin, bularning hammasi aytganlarini so'zsiz bajarishni bildiradi. Kimningdir izmi, yo'l-yo'rig'i bilan ish ko'roshi ma'nosini anglatadi.

"Senga kim qo'yibdi bironing chirmandasiga o'ynashni". Bu o'rinda childirma degan cholg'u asbobi ham frazemaning somasi hisoblanib, xalqimiz san'atiga xos bo'lgan cholg'u asbobi bo'lib, frazemaning lingvokulturologik xususiyatini to'la aks ettirgan.

"Terisiga somon tiqqan" iborasi ham azaldan dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan xalqimizning turmush tarziga bevosita xosdir.

Qattiq azoblamoq, qiynamoq ma'nosida qo'llanuvchi bu iborada aynan somon detalining ishtirok etishi iboraning xalqchil ruhini namoyon qiladi.

"Og'ziga tolqon solmoq" - mutlaqo gapirmaslik, "To'ydan oldin nog'ora chalmoq" - bajarilmagan holat yoki harakatni ovoza qilmoq, "Chuchvarani xom sanamoq" - xato o'ylamoq, "Osmondan chalpuk kutmoq" - beg'am bo'lmoq, dangasalik qilmoq, "Qirq marta o'lchab kesmoq" - o'ylab ish qilmoq, "Qora terga botmoq" - "haddan tashqari zo'r berish natijasida mo'l- ko'l terlamok", "Sufra qoqdi" - eng so'nggi, "Ko'ngliga zig'ir yog'day urmoq" - bezor bo'lmoq, "Kindigi kesilgan" - tug'ilgan, "Kindik qoni tomgan" - tug'ilgan, "Ikki dunyoda ham" - hech qachon, "Izzat nafsiga tegmoq" - kamsitadigan so'z aytmoq, "To'nini teskari kiymoq" - fikridan qaytmoq, "Zuvalasi pishiq" - a'zoyi badani chiniqqan, "Do'ppisi yarimta" - beparvo, beg'am, "do'ppisi tor kelmoq" - ilijisiz, imkonsiz qolmoq. Bunday iboralarning ba'zilari tarkibidagi so'zlari bilan, ba'zilari anglatayotgan ma'nosi bilan

ham lingvokulturologik xususiyatga ega bo'lgan frazemalarga yaqqol misol bo'ladi. Bular tarkibidagi so'z va uning ma'nosi jihatidan ham aynan xalqimiz madaniyati va turmush tarziga xos, xalqchil bir tushunchalarni o'zida ifodalagan. Bunday iboralar tilimizda juda ko'plab uchraganligi holida, ularni og'zaki va yozma qo'llanishi nutqning jozibasini bo'yoqdor va obrazlilikini ta'min etadi. Iboralar ko'pincha so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xos bo'lib, kinoya va qochiriqlarga boy bo'ladi. Ko'chma ma'noda keluvchi bu birliklarda yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zi tegishli bo'lgan til birliklariga oid xususiyatlar madaniy jihatdan ko'rinib turadi. Iboralar nafaqat xalq jonli tilida ishlatiladi, balki badiiy asarlarda ham muallif va qahramonlar tilidan qo'llaniladi. Bu esa muallif badiiy niyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu jarayon badiiy asarlar paydo bo'lgan davrlardanoq mavjud bo'lgan. "Frazeologizm ifoda vositasi sifatida qaralganda Arastuga borib taqaladi."

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, milliy va madaniy frazeologizmlarning aksariyati xalqning kundalik turmush tarzi, rasm-rusumlari va urf-odatlar bilan bog'liq. Madaniyatlarining o'zaro ta'siri asosida paydo bo'lgan frazeologizmlar millatning, xalqning milliy urf-odat va an'analari, dunyoqarashi, madaniyatini o'zida aks ettira oladi.

Yuqorida keltirilgan misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, iboralar shu xalqning ma'naviyatini, madaniyatini, asriy tajribalari asosida kelib chiqargan xulosalarini lo'nda va ixcham holda ifoda etadi. Frazeologizmlarning aksariyati ilmiy-madaniy sharoitda vujudga kelib, frazeologik qatlamni boyitadi.

### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998.19-bet.
2. Gulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. - T.: "O'qituvchi", 1995. 6-bet.
3. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. С. 559.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologiyasining ba'zi masalalari –T.: Fan, 1966. – 55-bet
5. Rahmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari. – T.: Akademnashr, 1985. 61-bet
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.- T.:O'qituvchi,1978. 27-291-bet
7. F. de Sossyur. Umumiy tilshunoslik kursi. (Fransuz tilidan prof. I. K. Mirzayev tarjimasini)